**XALQ DEPUTATLARI NAMANGAN VILOYATI KENGASHINING**

**Q A R O R I**

2025-yil 23-may VII-10-75-6-0-K/25 Namangan viloyati

**Namangan viloyatining viloyat budjeti daromadlarining 2025-yil birinchi hisobot chorak yakuni bo‘yicha aniqlangan prognozdan oshirib bajarilishi hisobidan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 126-moddasiga asosan, viloyat hokimining Namangan viloyatining viloyat budjeti daromadlarining 2025-yil birinchi hisobot chorak yakuni bo‘yicha aniqlangan prognozdan oshirib bajarilishi hisobidan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risidagi taklifini ko‘rib chiqib, Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashi

**QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 126-moddasiga asosan, viloyat hokimligining Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashiga taqdim etgan taklifiga muvofiq, Namangan viloyatining viloyat budjeti daromadlarining 2025-yil birinchi hisobot chorak yakuni bo‘yicha aniqlangan prognozdan oshirib bajarilishi hisobidan ilovaga muvofiq 21 176 633,0 (yigirma bir milliard bir yuz yetmish olti million olti yuz o‘ttiz uch) ming so‘m mablag‘lar yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

2. Xarajatlarni amalga oshirishga mas’ul tashkilotlar rahbarlariga:

ajratilgan mablag‘lar doirasida belgilangan tartibda to‘lovlarni amalga oshirish;

moliyalashtirish manbasini ochish uchun o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi hamda viloyat g‘aznachilik xizmati boshqarmasiga taqdim etish;

ajratilgan maqsadli mablag‘larni o‘z vaqtida va samarali sarflanishi yuzasidan moliyaviy hisobotlar asosida tizimli o‘rganish hamda o‘rganish natijalariga ko‘ra, ishlatilmagan va iqtisod qilingan mablag‘larni viloyat mahalliy budjetiga qaytarish choralarini ko‘rishni ta’minlansin.

3. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (M.Abdullayev)ga budjet xarajatlariga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritish hamda viloyat

g‘aznachilik xizmati boshqarmasi (A.To‘rayev)ga to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish hamda Davlat moliyaviy nazorat inspeksiyasi viloyat boshqarmasi (B.Xodjiyev)ga ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish vazifalari topshirilsin.

4. Mazkur qaror ijrosining nazorati qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi I.Ikramov, ijrosini ta’minlash viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari Z.Baxriddinov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi  MUMINOV SOLIJON DJALILOVICH

Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining
2025-yil 23-maydagi
VII-10-75-6-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Namangan viloyatining viloyat budjeti daromadlarining 2025-yil birinchi hisobot chorak yakuni bo‘yicha aniqlangan prognozdan oshirib bajarilishi hisobidan yo‘naltirilayotgan mablag‘lar**

| № | Mablag‘ oluvchilar nomi | Tadbirlar nomi | Ajratilgan mablag‘lar miqdori (ming.so‘m) |
|---|---|---|---|
| 1 | Namangan viloyati xokimligi | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi PF-87-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi 585-sonli qaroriga asosan viloyatdagi ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoj qizlar, boquvchisi yo‘q yolg‘iz ayollarning oliy ta’lim olishlarini moddiy jixatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida viloyat komissiyasi tomonidan saralangan 150 nafar xotin-qizlarni to‘lov kontraktlari uchun | 614 000,0 |
| 2 | Namangan viloyati hokimligi | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2024-yil 8-iyuldagi 21-129Z-son topshirig‘iga asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi “InterForum” davlat unitar korxonasining 2025-yil 28-fevraldagi 01-48-son xatiga asosan Davlat rahbari tomonidan 2024-yilning 25-26 mart kunlari Namangan viloyatiga amalga oshirilgan tashriflari doirasida bajarilgan ishlar uchun | 150 658,0 |
| 3 | Namangan viloyati madaniyat boshqarmasi | 2025-yil 20-yanvardagi Namangan viloyati hokimligining ijroiya apparati 01/02-7-son yig‘ilishi bayoniga asosan viloyatda yangi | 775 880,0 |

| № | Mablag‘ oluvchilar nomi | Tadbirlar nomi | Ajratilgan mablag‘lar miqdori (ming.so‘m) |
|---|---|---|---|
| | | qurilgan 3 ta bolalar musiqa va san’at maktablarini jihozlash bilan bog‘liq xarajatlar uchun | |
| 4 | Namangan viloyati hokimligi | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-393-sonli qarori O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 8-noyabrdagi 591-sonli qarori ijrosiga muvofiq, viloyatdagi 762 ta umumta’lim maktablarining 23195 nafar 11-sinf o‘quvchilari hamda akademik litsey, kasb-xunar maktablaridagi bitiruvchi 2-kurs o‘g‘il bolalar bilan otish mashg‘ulotlarini o‘tkazish xarajatlari uchun | 504 900,0 |
| 5 | Namangan viloyati madaniyat boshqarmasi | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-avgustdagi PQ-5209-son qaroriga muvofiq, Namangan viloyatida o‘tkaziladigan “Xalqaro gullar festivali” doirasida turli tadbirlarni o‘tkazishga liboslar sotib olish xarajatlari uchun | 330 000,0 |
| 6 | Namangan viloyati hokimligi | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-dekabrdagi 100-son yig‘ilish bayoni hamda Davlat komissiyasining 2021-yil 21-yanvardagi 9-sonli bayoniga asosan O‘zbekiston Respublikasi davlat san’at va madaniyat instituti Farg‘ona mintaqaviy filialida tahsil olayotgan Namangan viloyatidan bo‘lgan talabalarga to‘lov kontraktini to‘lash xarajatlari uchun | 261 100,0 |
| 7 | “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” DUK | “Dinamo” jismoniy tarbiya-sport jamiyati Namangan viloyati Kengashida bajariladigan kurilish-montaj ishlarini uchun | 975 804,0 |
| 8 | “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” DUK | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-martdagi PQ-160-son qaroriga asosan “Yangi O‘zbekiston bog‘i”ni tashkil etish bilan bog‘liq xarajatlarга uchun (3-bosqich Sun’iy ko‘l xavzasi, sport maydonchalari hamda boshqa infratuzilma obyektlari qurilishi uchun) | 6 000 000,0 |
| 9 | “Kapital qurilish sohasida | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-apreldagi | 3 500 000,0 |

| № | Mablag‘ oluvchilar nomi | Tadbirlar nomi | Ajratilgan mablag‘lar miqdori (ming.so‘m) |
|---|---|---|---|
| | buyurtmachi xizmati” DUK | PF-106-sonli Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 27-iyuldagi 418-F-sonli Farmoyishiga asosan viloyatdagi ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarini jihozlash xarajatlari uchun | |
| 10 | “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” DUK | Obod markaz dasturiga kiritilgan Norin tumanidagi Davlat xizmatlari markazini rekonstruksiya qilish obyektida bajarilgan ishlardan xosil bo‘lgan kreditor qarzdorlik uchun | 68 000,0 |
| 11 | Namangan shahar mahalliy budjeti | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-avgustdagi PQ-5209-son qaroriga muvofiq, 2025 yilda Namangan shahrida o‘tkaziladigan “Xalqaro gullar festivali”ni o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlari uchun | 2 000 000,0 |
| 12 | Namangan shahar mahalliy budjeti | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-avgustdagi “Respublika hududlarida gulchilik va ko‘chatchilik sohalarini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi PQ-5209-sonli Qaroriga asosan Namangan shahrida o‘tkazilgan “Xalqaro gullar festivali” doirasida Namangan shahri (1,3 mlrd.so‘m) va Davlatobod tumani (1,2 mlrd.so‘m) markaziy ko‘cha va hiyobonlariga gul va butalar ekish ishlaridan yuzaga kelgan qarzdorliklarni bartaraf etish uchun | 2 500 000,0 |
| 13 | Namangan shahar mahalliy budjeti | Yangi Namangan tumanining ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishga oid dasturlar ijrosini ta’minlash va tumanda aholi kayfiyatini yaxshilash maqsadida tadbirlarni amalga oshirish uchun | 1 000 000,0 |
| 14 | Namangan viloyati futbol assotsiatsiyasi | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-apreldagi PQ-15-sonli qarori ijrosiga muvofiq, “Xavaskor va yarim professional jamoalar o‘rtasida 2-liga viloyat birinchiligi”, “Hokim kubogi” hamda 5 ta yosh toifasidagi “Bolalar ligasi” viloyat birinchiligini o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlariga | 536 800,0 |
| 15 | Namangan viloyati Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi | O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 18-yanvardagi 30-sonli qarori ijrosiga muvofiq, viloyatda iqtidorli | 187 500,0 |

| № | Mablag‘ oluvchilar nomi | Tadbirlar nomi | Ajratilgan mablag‘lar miqdori (ming.so‘m) |
|---|---|---|---|
| | | yoshlarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni yanada jadallashtirish, ularni ilmiy-texnik faoliyatga keng jalb qilish maqsadida “Mirzo Ulug‘bek vorislari” respublika tanlovining viloyat, tuman (shahar) bosqichlari g‘oliblarini taqdirlash bilan bog‘liq xarajatlar uchun | |
| 16 | To‘raqo‘rg‘on tumani mahalliy budjeti | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-iyuldagi PQ-245-son qarorining 2-ilovasiga asosan To‘raqo‘rg‘on tumanida urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirish maqsadida yer toifasini o‘zgartirish bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar uchun | 29 085,0 |
| 17 | Yangiqo‘rg‘on tumani mahalliy budjeti | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-iyuldagi PQ-245-son qarorining 3-ilovasiga asosan Yangiqo‘rg‘on tumanida turizm maskanlarini tashkil qilish maqsadida yer toifasini o‘zgartirish bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar uchun | 71 840,0 |
| 18 | Pop tumani mahalliy budjeti | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2024-yil 25-26-mart kunlari Namangan viloyatiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar bo‘yicha 21-sonli bayonining 11-bandiga asosan Pop tumanida yo‘l bo‘yi infratuzilmasini yaxshilash maqsadida yer toifasini o‘zgartirish bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar uchun | 38 841,0 |
| 19 | Namangan viloyati sport boshqarmasi | Namangan viloyatida joriy yilning 29-31-may kunlari sportning erkin va yunon-rum kurash turlari bo‘yicha “O‘zbek Botirlari Gran pri” xalqaro musobaqasini o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar uchun | 771 025,0 |
| 20 | Namangan viloyati sport boshqarmasi | O‘zbekiston huquqni muhofaza qilish organlari qo‘l jangi Federatsiyasi va Sport vazirliklarining 2025-yil kalendar rejasiga asosan, joriy yilning 20-21-iyun kunlari Namangan shahrida professional sportchilar o‘rtasida qo‘l jangi bo‘yicha turnirini o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar uchun | 443 200,0 |

| № | Mablag‘ oluvchilar nomi | Tadbirlar nomi | Ajratilgan mablag‘lar miqdori (ming.so‘m) |
|---|---|---|---|
| 21 | Namangan viloyati madaniyat boshqarmasi | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-avgustdagi PQ-5209-sonli Qarori ijrosiga muvofiq, Namangan viloyati hokimining 2025-yil 18-apreldagi “Namangan 64-xalqaro gullar festivaliga tayyorgalik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi 197-6-0-Q-25-sonli qarorga asosan joriy yil 26-may kuni O‘zbekiston milliy simfonik orkestri tomonidan Yangi O‘zbekiston bog‘ida “Ochiq osmon” ostidagi konsert dasturi o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar uchun | 418 000,0 |
| | **J A M I** | | **21 176 633,0** |